

O'ZBEK TILIDA YUKLAMALAR (O'TGAN KUNLAR ROMANI ASOSIDA)

Dilrabo ABDAZIMOVA*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot "O'tgan Kunlar" romanida ishlatilgan yuklamalar asosidadir. Romanning yozma tili, tilning xususiyatlari XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tilining xususiyatlarini, grammatik qoidalarini va uslublarini aks ettiradi. Matinda o'zbek tilidagi yuklamalar aniq va to'g'ri ishlatilgan bo'lib ko'plab misollar mavjud. Qodiriy o'z asarida o'zbek tilining barcha grammatik qoidalarini aniq va uslubiy jihatdan to'g'ri ishlatgan. Bu, romanning til va grammatika jihatidan o'z davrining adabiy standarti va madaniy kontekstini aks ettiradi. Har bir tilning asosi so'zlardan iboratdir. So'zlar esa mustaqil ve yordamchi bo'lib ikkiga ajratiladi. Mustaqil so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchilar yuklamalardir. Tuzilishi jihatidan yuklamalar so'z yuklamalar ve qo'shimcha ko'rinishdagi yuklamalar bo'lib ikkiga ajratiladi. Ma'no jihatidan esa jami oltiga ajratiladi: so'roq-taajjub yuklamalari, kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari, ayiruv-chegaralov yuklamalari, o'xshatish-qiyoslash yuklamalari, gumon yuklamasi ve inkor yuklamalari.

Kalit so'zlar: yuklama, so'z, O'tgan Kunlar, o'zbek tili

Predicates in Uzbek Language (Based on the Novel of the "Otkan Kunlar")

Abstract: This study is based on the predicates used in the novel "Otkan Kunlar". The written language and linguistic features of the novel reflect the features, grammatical rules and styles of the Uzbek literary language of the late 19th and early 20th centuries. The text contains many examples of clear and correct use of Uzbek prepositions. In his work, Qadiri has clearly and methodically correctly used all the grammatical rules of the Uzbek language. This reflects the literary standard and cultural context of the time of the novel in terms of language and grammar. The basis of every language consists of words. Words are divided into independent and auxiliary. Auxiliaries that give additional meaning to independent words and sentences are prepositions. In terms of structure, reductions are divided into word reductions and additional reductions. In terms of meaning, they are divided into six as question-surprise predicates, strengthening-emphasis predicates, subtraction-reduction predicates, analogy-comparison predicates, doubt predicates and negation predicates.

Keywords: predicates, word, Otkan Kunlar, Uzbek language

O'zbek tilida yordamchi so'zlarni ko'makchi, bog'lovchi va yuklama so'zlar birlashtiradi. Yuklama asosan gapshaklga bir butun holda, ba'zan biror sintaktik bo'lakka qo'shib, so'roq, ta'kid, taajjub kabi grammatik ma'nolarni beradi. Ba'zi yuklamalar ko'rinishi jihatidan affiksga o'xshaydi va affiks ko'rinishli yuklamalar ham deyiladi. Bu ko'rinishdagi yuklamalar; -mi, -gina, -kina, -qina (g'ina), -oq/-yoq, -ov/-yov so'zga qo'shib yoziladi. -chi, -ku, -da, -e, -a,-ya, -u/-yu, -ey/-yey yuklamalari esa chiziqcha bilan yoziladi. Axir, faqat, nahotki, hatoki, xuddi, ham, esa kabi yuklamalar bo'lak yoziladi (Mengliyev, Xaliyarov, 2018: 233).

Odatda yuklamalar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi: 1) so'roq-taajjub yuklamalari, 2) kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari, 3) aniqlov yuklamasi, 4) ayiruv-chegaralov yuklamalari, 5) gumon yuklamasi va 6) inkor yuklamasi.

1. So'roq-Taajjub Yuklamalari: -mi, -chi, -a(ya)

Bu yuklamalar ishtirok etgan gap mazmuniga so'roq yoki taajjub ma'nolari beradi. -**chi** yuklamasi gap mazmuniga so'roq ma'nosidan tashqari buyruq, iltimos, xohish, ta'kid kabi ma'nolar ham beradi (Hamrayev, 2018: 153).

Otabekni **chi**? - deb so'radi (073/29), -Undan keyin-chi?

Ko'ray **chi**, qadamim muborak bo'larmikin! – deb qo'ydi

Rahmat ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz **chi**!

Agar shular bo'lmasa **chi**, kishi allaqachon dunyodan chiqib ketadir.

-To'xtanglar **chi**, - dedi Otabek, hamma unga qaradilar.

-Qo'ying **chi**... O'zingiz har bir narsani ham ko'nglingizga olaberar ekansiz...

-Qani gapuring **chi** menga, orangizdan bir gap o'tdimi, - deb so'radi.

-Ota, siz yugurib tabibga boring **chi**!, Kumushning choyini oqlab ber **chi**!

* PhD, dilrubarustam@gmail.com.

-Shamni olib kirchi oldimga. Hayr qo'llaridan kelganni qilib ko'rsinlarchi.
Agar shular bo'lmasa-chi, kishi allaqachon dunyodan chiqib ketadir.
-Tufi, qurib ketsin jonim chiqib ketdi-ya! -Qabul qilasizmi-ya?
-Kumush! qallig'ing keldila-ya, chiqib so'rashishni ham bilmaysan!
Bu gaping to'g'ri-ya, - dedi Qutidor.

2. Kuchaytiruv-Ta'kid Yuklamalari

Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari ishtirok etgan gap yoki so'z mazmunini kuchaytiradi, ta'kidlaydi (Abdurahmonov, Rafiyev, Shodmonqulova, 1992: 187). Tag'in ayimning rangi o'chkan, qani qachqan: tovoqni kosaga, cho'michni piyolaga urib dod-i faryad "Siz otamisiz, nimasiz axir, og'lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi. Kumushning Toshkentda qolishiga otasi shunday yovosh qaradi, bu to'g'rida Oftob oyimning fikr va rizolig'i bilan hisoblashish emas, hatto uni ko'ngliga ham kelturib ko'rmadi. Nahotki uch yil bo'lsa-yu bir yo'li o'z bilgularingizcha kelmasalaringiz. -Hali yoshqa o'xshaysiz-ku. Hasanali otning boshini Qo'qon tomong'a qarab qo'ydi-da daqiqa ichida ko'zlarga ko'rinmas bo'lib ketdi. - O'ziñiz qayakdan bilesiz, 'ehir birev 'eytkendir sizge? O'zingiz qayoqdan bilasiz, axir birav aytkandir sizga?

3. Ayiruv-Chegaralov Yuklamalari

Ayiruv-chegaralov yuklamalari qo'shilgan so'zning mazmunini chegaralab yoki ajratib keladigan yuklamalardir (Rahmatullayev, 2006: 131-133): Faqat sizning tinchsizlanishingiz va mardumning yuqori-quyi so'zi bo'lmasa sizga boshqa zarar bolur deb o'ylay olmayman. ...Marg'ilonliq "andi" kelin ustida bo'lar va uning uchun eng ahamiyatlik masala faqatgina shugina bo'lib ko'rinar edi. Atigi uch-to'rt kun qayin ota, qayin onalarimni ko'rib ketish uchungina kelganman. Uzoqqina qarab turg'andan keyin o'ziga ham sezdirmaslik qilib entikdi, yana uch-to'rt qatim tortti... Qizlar o'zlarining bir turlikkina so'zlashishlari bilan Kumush ila ko'risha boshladilar. Chunki arzimagan bir sabab bilan ikkalasi ham yaxshig'ina tayoq yeb oldi. Qushbegi yarog'liq yigitlarni qaytishg'a buyurib gunohkorlarni yavoshg'ina qilib o'z oldiga chaqirdi. Romanda -gina, -kina, -qina yuklamalarining -g'ina shakli ham uchraydi.

4. O'Xshatish-Qiyoslash Yuklamalari

Bu yuklamalar o'zi bog'lanib kelgan gaplarga o'xshatish, qiyoslash ma'nolarini beradigan yuklamalardir (Rahmatullayev, 2006: 132-133). Ul ichi kirsiz, serkulki, ochiqg'ina bir yigit bo'lib, bek bilan go'ya ko'b yillardan beri bolg'an tanishlarcha mu'omala qilar edi. Hasanalining so'zining go'ya eshitmagandek so'radi. Qarshisiga yetkanda go'yoki, uning ta'zimi uchun sekingina bir charx urib qo'yar, o'z ustiga o'lirgan sohirani sahriga musahhar bo'lg'on kabi tag'i bir kattaroq doirada aylangach, ohistag'ina ko'prik ostiga oqib ketar edi.

O'zi go'yaki to'yga hozirlang'andek beshik yasab, sarpa tikib yuriydir. Uning yuzini o'pib tushkan suv tomchilari bilan ariq harakatga kelib chayqaldi, go'yaki suv ichida bir fitna yuz bergan edi.

Ayniqsa bir bo'yoqchi...xuddi xum yonidan tutib kelganlar - qo'li bo'yoq. Uzoq-yaqin xotinlarning "Hay, O'zbekoyimning Marg'ilonliq kelini ham kelibdir, xuddi to'tining bolasi emish".

Saodat sizni xudda o'z akasidek yaxshi ko'radir, tunov kun iroqi sobun olg'il deb o'ttuz pul bergan ekansiz. Qovoq devona xudde belbog'idan ajrayturg'andek iki qo'li bilan beliga yopishdi. O'g'il-qizning kengashi xudde shu kunga yig'ilib qolg'an ekan, - dedi ve kulimsirab eeriga qaradi. Axir shu ham gapmi, xudde allakimlarga o'xshab.

5. Gumon Yuklamasi

Gumon yuklamasi **-dir** qo‘shimchasi ko‘rinishda bo‘lib qo‘shilgan so‘zga gumon, noaniqlik ma‘nolarini kiritadi (Rahmatullayev, 2006:132-133).

O‘lturishi hamona qayoqdandir oyoq tovshi eshitkandek bo‘ldi-da sekingina o‘ltirgan joyiga yerga singgandek qilib yatib oldi. -Ko‘chaning boshida poylab o‘lturgandir. “Kundashlik uyda kunda janjal” deganlar. Albatta buni aytkuchi kishi o‘ylamasdan va bilmasdan aytmagandir.

-Sizga xabar berguchi nima ishlar qilg‘animni ham aytkandir. -Issiq-sovug‘ing kor qilg‘andir. “...bosilmag‘uncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir!”

Ammo Xo‘qand firdavs monandning ul o‘zida shaqovatpeshalar behad va behisob nufuska molik bo‘lg‘anlari vajahidin biz toshkand navkarlarining ionati beshakku shubha vojibdur.

6. Inkor Yuklamalari

Hech, sira, na...na, aslo so‘zlari bilan qo‘llanilgan gaplar inkor yuklamalaridir. Gapning kesimi ko‘pincha inkor shaklida bo‘ladi (Nurmonov, Mahmudov, 2007: 65). Ziyoshohichi bilan o‘g‘li Rahmatning har zamon mehmonlarni dasturxonga qistashlari boshqalarning ishtiholarini ochishga sabab bo‘lsa ham ammo bizning Otabekka sira ham asar qilmas, xayollanib o‘lturar edi.

“...bosilmag‘uncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir!” – bu jumlaning o‘qug‘anda undag‘ bo‘lsa **sira** tinchimangiz, - dedi-da yovoshg‘ina iljayib qo‘ydi. Ziyoshohichining kulib aytkan so‘zlariga Qutidor **sira** ham tushunmas va kutilmagan mehmonlarning kelish sababini so‘ramoqdan iymanar edi.

Biz **na** qipchoqlarg‘a tarafdor bir kishi va **na** shaharlik og‘aynilarg‘a! Marg‘ilondag‘i **na** qudamiz ve **na** kelinimizni hech bir vajah bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo‘lishga eng muvohiq kishilar edi.

Eriga bergan vadasini **aslo** bajara bilmas bul haqda qizig‘a og‘iz ochib so‘zlay olmas edi. O‘zi **aslo** ishonmag‘an chuncha yolg‘on gaplarni boyog‘i dovdirash holatida ilhom ravishda to‘qib yubordi. Shokirbek siz o‘ylag‘an kishilardan emas, **aslo** tap tortmay so‘zlay bering – dedi.

Xulosa

Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar kiradi. Matndagi yuklamalarning tahlilida faqat matndagi yuklamalarning qo‘llanishlari tahlil qilindi. Shu bilan birga yuklamalarning - so‘roq-taajjub yuklamalari, kuchaytiruv-ta‘kid yuklamalari, ayiruv-chegaralov yuklamalari, o‘xshatish-qiyoslash yuklamalari, gumon yuklamasi va inkor yuklamalariga alohida misollar keltirildi. Matnda ayiruv-chegaralov yuklamalari *-gina, -kina, -qina* shakli bilan birgalikda *-g‘ina* shaklida yozilgan yuklamalar ham mavjud. Tahlil davomida yana bir muhim narsa *-dir* gumon yuklamasining *-dur* shaklida yozilgan so‘zlar ham aniqlandi. Romanning yozilgan davri o‘zbek tilining adabiy til sifatida shakllana boshlagan davr, ya‘ni chig‘atoy yozuvidan o‘zbek yozuviga o‘tish davri deb qabul qilish mumkin. Shuningdek, misollardan ma‘lum bo‘ladiki, ayrim qo‘shimchalar enklitika bilan kengaytirilib, mahalliy qo‘llanish birinchi o‘ringa chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Abdurahmonov X., Rafiyev A., Shodmonqulova D., (1992), O‘zbek Tilining Amaliy Gramatikasi, Toshkent: O‘qituvchi.

Hamrayev, Madrim (2018), Ona Tili, Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat nashriyoti.

Mengliye, B. Xaliyarov O. Abdula N. (2018), O‘zbek Tilidan Universal Qollanma, Taşkent: Akademnashr.

- Nurmonov, A., Mahmudov, N., (2007), O'zbek Tilining Nazariy Grammatikasi, Toshkent: O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
- Qodiriy, Abdulla (1926), O'tkan Kunlar 1-2 bo'lim 2-nashr Samarqand-Toshkent: O'zbekiston Davlat nashriyoti.
- Qodiriy, Abdulla (1926), O'tkan Kunlar, 3-bo'lim, 1-nashr Toshkent: O'zbekiston Davlat nashriyoti.
- Rahmatullayev, Shavkat (2006), Hozirgi Adabiy O'zbek Tili (darslik), Toshkent: Universitet.